

Toshkent shahrida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 99,3 mingtani tashkil etdi.


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹



Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
Toshkent shahar	87 693	99 348
Yunusobod tumani	10 352	11 550
Chilonzor tumani	10 089	11 123
Mirzo Ulug'bek tumani	10 202	11 571
Olmazor tumani	8 087	8 824
Shayxontohur tumani	7 749	8 795
Yashnobod tumani	7 973	9 302
Yakkasaroy tumani	8 030	9 158
Mirobod tumani	7 243	8 004
Uchtepa tumani	6 834	7 524
Sergeli tumani	5 346	6 203
Yangiyo'l tumani	3 181	4 299
Bektemir tumani	2 607	2 995

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni](#)

II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2026- yilning yanvar-mart oylarida 4 679 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 673 ta, boshqa xizmatlarda 1 176 ta ,



sanoatda 392 ta, hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 417 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Uchtepa tumani	264	325
Bektemir tumani	116	157
Yunusobod tumani	562	490
Mirzo-Ulug'bek tumani	457	513
Mirobod tumani	334	324
Shayhontoxur tumani	407	426
Olmazor tumani	361	398
Sirg'ali tumani	268	314
Yakkasaroy tumani	420	472
Yashnobod tumani	467	489
Yangiheyot tumani	304	304
Chilonzor tumani	447	467
Toshkent sh.	4 407	4 679

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 53,3 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 % ga oshgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 430,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 35,8 % ini tashkil etdi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Olmazor (54,5 %), Yunusobod (50,4 %), Yakkasaroy (46,5 %), Uchtepa (37,8 %), Yangihayot (36,7 %), Mirzo-Ulug'bek (36,2 %), Sergeli (35,3 %), Mirobod (32,2 %), Chilonzor (31,1 %), Bektemir (25,2 %), Shayhontoxur (25,1 %) va Yashnobod (23,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 834,9 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 74,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 120,7 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sergeli (85,6 %), Mirzo Ulug'bek (88,0 %), Yashnobod (73,0 %), Uchtepa (91,4 %), Chilonzor (72,1 %), Mirobod (65,5 %), Yangihayot (86,7 %), Yakkasaroy (76,2 %), Shayxontoxur (79,7 %), Yunusobod (52,3 %), Olmazor (67,2 %) va Bektemir (82,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 14 418,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 56,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 155,1 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Uchtepa (81,2 %) , Yangihayot (89,6 %) , Mirzo Ulug'bek (54,5 %) , Yunusobod (67,4 %) , Mirobod (27,7 %) , ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 24 090,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 63,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 163,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shayhontoxur (3 790,4 mlrd.so'm), Chilonzor (3 668,9 mlrd.so'm), Yunusobod (3 367,6 mlrd.so'm), Uchtepa (2 561,5 mlrd.so'm),

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 51 116,6 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 43,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 119,7 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod (4 870,4 mlrd.so'm), Yakkasaroy (4 608,1 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (4 225,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 505,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 28,8 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmazor 67,2 %, Uchtepa 60,3 % , Yangihayot 56,9 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 3 191,8 million AQSH dollarini yoki jami importning 51,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa 84,1 %, Yakkasaroy 62,3 %, Olmazor 60,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,8 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida , avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 57,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida , avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 68,8 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida , avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,4 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107, % ni tashkil qildi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Toshkent shahrida kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida esa 10,8 % ga yetgan yoki 2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 31,0 %ga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida 46,6 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 6,7 % ni tashkil etgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)



Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-martida 44,0 % ni tashkil qildi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 52,1 % ni, o'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 3,9 % ni tashkil qildi.

Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning 1-choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 39,4,% ni, sanoat sohasida – 35,5 % ni va savdo sohasida – 35,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish savdo – 13,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida- 13,8 % , axborot va aloqa sohasida- 12,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 20,7 % , qurilish sohasida – 8,2 % ni, sanoatda – 7,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

